

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK
FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH.**

Akbarova Feruza Uktamjonovna

Qo'qon Davlat Universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Maqolada Zamonaviy o'qituvchi tafakkurini shakllantirish, bu jarayonda pedagogik fikr va g'oyalarning ahamiyati, uni rivojlantirishning pedagogik shart sharoitlari ko'rib chiqiladi. O'qituvchilarni yangi avlodni tarbiyalashga qo'yilayotgan talablarni bajara olishi uchun zamonaviy ta'lim muhitida ilgari surilayotgan yondashuvlar xaqida bilish daraasini oshirish, shuningdek ma'lumotni tahlil qilish, baholash va sintez qilish qobiliyati rivojlantirish yuzasidan o'rganishlar olib borilgan. O'qituvchilar ta'limida ijodiylikni yuksaltirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan,*

Kalit so'z: *ta'lim, ijodiy faoliyat, tarbiya, pedagogika, axborot, muhit, talab, samaradorlik, g'oya, zamonaviy, o'qituvchi, g'oya, talaba, kreativlik.*

Kirish. XXI asrda ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — bu o'qituvchilarda zamonaviy pedagogik fikrlashni shakllantirishdir. Globallashtirish, raqamli transformatsiya va ta'limning xalqaro standartlarga integratsiyalashuvi jarayonida o'qituvchi shaxsidan nafaqat nazariy bilim, balki analitik, kreativ va reflektiv fikrlash qobiliyatlari talab etilmoqda.

Pedagogik fikrlashni rivojlantirishda refleksiya, kreativlik va muammoli yondashuvlarning o'zaro integratsiyasi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ta'lim tizimining zamonaviy bosqichida o'qituvchilarda pedagogik fikrlashni rivojlantirish jamiyat ehtiyojlariga mos kadrlarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Bo'lajak pedagoglar yangi bilimlarni mustaqil tahlil qila olish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash, o'quv jarayonini kreativ tarzda tashkil eta olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur.

Asosiy qism: O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagogik ta'lim dasturlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar olib borilmoqda. Bu jarayon bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tafakkurini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishni talab etadi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda zamonaviy pedagogik fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari, xorijiy tajribalar hamda amaliy texnologiyalar tizimli tahlil qilinadi. Innovatsion o'qitish muhitini yaratish bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, loyiha asosidagi o'qitish, refleksiya va tahliliy baholash tizimini joriy etish pedagog shaxsining kreativ salohiyatini rivojlantiradi. Zamonaviy pedagogik fikrlash — bu o'qituvchi

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

tomonidan o'quv jarayonini innovatsion, tahliliy va kreativ nuqtai nazardan tashkil etish qobiliyatidir. Bo'lajak o'qituvchilarda zamonaviy pedagogik fikrlashni rivojlantirish ularning kasbiy kompetensiyasini oshirishning ajralmas qismi hisoblanadi. Bo'lajak pedagoglar uchun pedagogik fikrlash — bu o'zining kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish, muammolarni yangicha hal etish va o'quvchilarning individualligini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini loyihalashdir. Shu bois, zamonaviy o'qituvchi tayyorlashda pedagogik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodik tizimlarni yaratish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Aksariyat mutaxassislarining ta'kidlashicha, insoniyat hozirda rivojlanishning yangi bosqichi, biomadaniyat bosqichi bo'sag'asida turibdi. Buning ma'nosi shuki, hozirda insoniyat muhitga bo'lgan munosabatini boshqacha usullar va ko'rinishlarda amalga oshirmoq kerak. Shunday qilib, axborot tashkilotlarining hozirgi asosiy masalasi shundan iboratki, ular o'z faoliyatlarini tartiblashtirib, uni rivojlantirishni shunday bosqichga ko'tarishlari kerakki, u har qanday radikal o'zgarishlar sharoitida faoliyat ko'rsata olsin.¹

Quyidagi jadvalda pedagogik fikrlashni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar va ularning amaliy mazmuni keltirilgan



Adabiyotlar taxlili.

Pedagogik fikrlashni rivojlantirish masalasi bo'yicha ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlar olib borgan. Ularning ishlari o'qituvchi shaxsining kreativ,

¹ TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI TURAYEVA GULNOZ ERGASHEVNA 'LAJAK O'QITUVCHILAR NI SOG'LOM MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH (Monografiya) Termiz – 2023

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

innovatsion va reflektiv kompetensiyalarini shakllantirishda nazariy asos vazifasini bajaradi. .A. Abduqodirovning” Pedagogik innovatsiyalar nazariyasi va amaliyoti” asarini ko’radigan bo’lsak, muallif zamonaviy ta’limda pedagogik fikrlashni rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlar tizimini ishlab chiqqan. M. Xodjayevning“ Raqamli pedagogika.” asarida raqamli muhitda o’qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalariga e’tibor qaratgan. Muallif o’quv jarayoniga interfaol platformalar, masofaviy ta’lim vositalari va raqamli resurslarni integratsiya qilish metodik yo’llari bayoni etgan. A.Jo’rayev “Ta’limda innovatsion yondashuvlar va kreativ fikrlashni rivojlantirish” mavzusiga to’xtalgan. U muammoli vaziyatlar asosida mustaqil fikr yuritish, qaror qabul qilish va jamoaviy ijodkorlikni rivojlantirish yo’llarini yoritadi. N.Qodirova “ Zamonaviy pedagogik tafakkurni shakllantirish omillari.” Mavzusida ish olib bordi. Muallif o’qituvchilarda zamonaviy pedagogik fikrlashni rivojlantirish uchun shaxsga yo’naltirilgan yondashuvni asoslab bergan. U o’qituvchining reflektiv fikrlash madaniyatini ta’lim sifati bilan uzviy bog’liq jarayon sifatida talqin qiladi.

O’zbekiston olimlarining tadqiqotlari zamonaviy pedagogik fikrlashni rivojlantirishda mustahkam ilmiy asos yaratgan. Ularning ishlari o’qituvchini kreativ, reflektiv va innovatsion shaxs sifatida shakllantirish jarayonida muhim manba bo’lib xizmat qiladi.

Metadalogiya, Interfaol metodlar va raqamli texnologiyalarni qo’llash talabalarning o’quv motivatsiyasini, ijodiy faoliyat ko’rsatkichlarini oshirgan. Pedagogik muhitni innovatsion tarzda tashkil etish orqali talabalarda refleksiya, muammoli vaziyatlarda yo’l topish, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmalari rivojlanadi. Tadqiqot konstruktivizm, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish nazariyalariga tayanadi. O’zbekiston ta’lim tizimi uchun Zamonaviy fikr g’oyalaridan foydalanish pedagogic sohada asosiy yo’nalish sifatida olingan. Tadqiqot faoliyatga yo’naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy model va innovatsion ta’lim muhitini yaratish konsepsiyalariga tayangan. Asosiy nazariy manbalar: Zamonaviy o’qituvchi shaxsini rivojlantirishda texnologik yondashuv (pedagogik dizayn, raqamli platformalar, interfaol metodlar) asos sifatida olingan. Zamonaviy pedagogik fikrlashni rivojlantirish uchun “Interfaol o’quv muhit – reflektiv tahlil – mustaqil qaror qabul qilish” mexanizmi asosida o’rganildi.

Taxlil va natijalar.Dunyoda ta'limning o'zgaruvchan roli, o'qituvchilarning yangi avlodini tayyorlashga qo'yiladigan talablar oshishi hisoblanadi. Quyidagi ma'lumotda pedagogik fikrlashni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar va ularning amaliy mazmuni keltirilgan

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

Zamonaviy pedagogik fikrlashni rivojlantirish texnologik tizimi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1	Diagnostika	mavjud bilim va tafakkurni aniqlash
2	Integratsiya	innovatsion metodlarni o'quv jarayoniga kiritish
3	Integratsiya	o'z faoliyatini baholash va takomillashtirish
4	Natijaviy monitoring	rivojlanish darajasini tahlil qilish.

1. Taxlillar shuni korsatadiki, pedagogik fikrlashning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat

- Bo'lajak o'qituvchilar uchun zamonaviy pedagogik fikrlashning ahamiyati:

- ❖ Kasbiy kompetentlikni oshirish.
- ❖ Innovatsion faoliyatga tayyorlik.
- ❖ O'z-o'zini rivojlantirishga intilish.
- ❖ O'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish.

- Zamonaviy pedagogik fikrlashning tarkibiy qismlari (tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, refleksiv fikrlash, tizimli fikrlash, axborot bilan ishlash qobiliyati).

- Zamonaviy pedagogik fikrlashning vazifalari (ta'lim maqsadlarini belgilash, o'qitish metodlarini tanlash, o'quv jarayonini tashkil etish, natijalarni baholash).

2. Bo'lajak o'qituvchilarda zamonaviy pedagogik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi.

- Ta'lim muhitini yaratish (demokratik muhit, hamkorlik muhiti, ijodiy muhit).
- O'quv jarayonini tashkil etish (interaktiv metodlardan foydalanish, muammoli vaziyatlarni yaratish, loyihalarni amalga oshirish).
- O'qituvchining roli (moderator, fasilitator, trener).

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda bo'lajak pedagoglarni innovatsion o'qitish muhitiga tayyorlash jarayonining nazariy va amaliy asoslari yangilash, innovatsion o'qitishning pedagogik strategiyalari, interfaol metodlardan foydalanish mexanizmlari, raqamli muhit imkoniyatlari hamda pedagog shaxsini rivojlantirishga xizmat qiluvchi texnologiyalar tizimini imkoniyatlarini oshirish lozim. Ta'limda innovatsion strategiyalarni joriy etish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Ta'limda innovatsion strategiyalarni joriy etish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda zamonaviy pedagogik fikrlashni rivojlantirishdagi mavjud muammolar (nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi tafovut, o'qitish metodlarining eskirganligi, innovatsion texnologiyalardan foydalanishning yetarli emasligi). Muammoni hal etish yuzasidan quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

1. Bo'lajak o'qituvchilarda zamonaviy pedagogik fikrlashni rivojlantirishda kreativ yondashuvlarning rolini oshirish.
2. Zamonaviy pedagogik fikrlash va uning asosiy elementlari rivojlanishi uchun sharoit yaratish
3. Yangicha yondashuvlarni o'qituvchilar ta'limiga samarali integratsiya qilish
4. Bo'lajak o'qituvchilarda zamonaviy pedagogik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini belgilash.
5. Amaliy-texnologik tizimning tuzilishini ishlab chiqish.
6. Tizimning samaradorligini baholash mezonlarini aniqlash.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jo'rayev, A. (2020). Ta'limda innovatsion yondashuvlar va kreativ fikrlashni rivojlantirish. Toshkent: Innovatsiya,
2. Qodirova, N. (2018). Zamonaviy pedagogik tafakkurni shakllantirish omillari. Toshkent: O'zMU nashriyoti,
3. Yuldasheva, D. (2022). Pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar. Samarqand: SamDU nashriyoti,
4. Abduqodirov, A. A. (2019). Pedagogik innovatsiyalar nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: TDPU nashriyoti,
5. Xodjayev, M. (2021). Raqamli pedagogika asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya,
6. Abduqodirov, A. A. (2020). Kreativ pedagogika asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti,
7. Qodirova, N. (2022). Raqamli didaktika va o'qitish texnologiyalari. Toshkent: Fan va ta'lim,.